

**O'ZBEKISTONDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI YANADA YAXSHILASH MAQSADIDA AYRIM  
SOHALARNI QO'LLAB-QUVVATLASHDA BERILAYOTGAN SOLIQ IMTIYOZ VA  
PREFERENSIYALARINING SAMARADORLIK TAHLILI**

*Normurzaev Umid Xolmurzaevich -  
falsafa doktori (PhD) Davlat soliq qo'mitasi  
Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo  
davlat soliq inspeksiyasi bosh inspektori*

**Annotatsiya:** O'zbekiston Respublikasida soliq va boshqa majburiy to'lovlari yig'iluvchanligining zarur darajasini ta'minlash, imtiyozlar berish borasida aniq mezon va mexanizmlarni ishlab chiqish, berilayotgan imtiyozlar va preferensiyalarning samaradorligini baholashga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2021 yil 20 avgustdagagi Mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklidagi uchrashuvda so'zlagan nutqida "Halol tadbirkor, intizomli soliq to'lovchilar safini kengaytirish dolzarb vazifa bo'lib, bu - yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashning eng maqbul yo'lidir. Ma'lumki, so'nngi uch yilda soliqlar turi 16 tadan 9 taga qisqardi. Byudjetdan tashqari jamg'armalarga mazkur yig'ilmarni bekor qilish hisobidan 7 mingga yaqin korxonalar har yili o'rtacha 6 trillion so'm soliq to'lashdan ozod bo'ldi.

**Kalit so'zlar:** byudjet siyosati, inqiroz, byudjet, soliq imtiyozlari, soliq ma'murchiligi, tadbirkorlik sub'ektlari, soliq hisoboti, soliq tushumlari, soliq imtiyozlari, soliq, soliq stavkasi, preferensiylar.

**АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ НАЛОГОВЫХ ЛЬГОТ И ПРЕФЕРЕНЦИЙ В ПОДДЕРЖКЕ  
ОПРЕДЕЛЕННЫХ СЕКТОРОВ С ЦЕЛЬЮ ДАЛЬНЕЙШЕГО ПОВЫШЕНИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ  
ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ**

*Нормурзаев Умид Холмурзаевич -  
доктор философских наук, главный инспектор Межрегиональной  
государственной налоговой инспекции по крупным налогоплательщикам  
Государственного налогового комитета.*

**Аннотация:** В Республике Узбекистан особое внимание уделяется обеспечению необходимого уровня сбора налогов и других обязательных платежей, разработке четких критериев и механизмов предоставления льгот, оценке эффективности льгот и преференций. В своем выступлении на встрече с предпринимателями Узбекистана 20 августа 2021 года Президент Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёев сказал: это путь. Известно, что за последние три года количество видов налогов снижено с 16 до 9. В связи с отменой этих сборов во внебюджетные фонды около 7000 компаний освобождены от уплаты налогов в среднем на 6 триллионов сумов в год.

**Ключевые слова:** бюджетная политика, кризис, бюджет, налоговые льготы, налоговое администрирование, субъекты хозяйствования, налоговая отчетность, налоговые поступления, налоговые льготы, налоги, налоговые ставки, преференции.

**ANALYSIS OF THE EFFECTIVENESS OF TAX INCENTIVES AND PREFERENCES IN  
SUPPORT OF CERTAIN SECTORS IN ORDER TO FURTHER IMPROVE INVESTMENT  
ATTRACTIVENESS IN UZBEKISTAN**

*Normurzaev Umid Kholmurzaevich –  
Doctor of Philosophy (PhD) State Tax Committee on Large Taxpayers  
Chief Inspector of the Interregional State Tax Inspectorate*

**Annotation:** Particular attention is paid to ensuring the required level of collection of taxes and other mandatory payments in the Republic of Uzbekistan, the development of clear criteria and mechanisms for granting benefits, assessing the effectiveness of benefits and preferences. In his speech at the meeting with entrepreneurs of Uzbekistan on August 20, 2021, President of the Republic of Uzbekistan Sh.M.Mirziyoev said: "Expanding the ranks of honest entrepreneurs, disciplined taxpayers is an urgent task, which is the best way to combat the shadow economy. It is known that in the last three years the type of taxes has been reduced from 16 to 9. Due to the abolition of these fees to extra-budgetary funds, about 7,000 enterprises are exempt from paying an average of 6 trillion soums a year in taxes."

**Keywords:** budget policy, crisis, budget, tax benefits, tax administration, business entities, tax reporting, tax revenues, tax benefits, taxes, tax rates, preferences.

**Kirish.** Respublikamizda investitsion jozibadorlikni yanada yaxshilash maqsadida soliq islohotlari davom ettirildi hamda yangi Soliq kodeksi amaliyotga joriy etildi.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekistonda amaldagi qonunchilik bilan tadbirkorlik sub'ektlariga berilgan imtiyozlar yalpi ichki mahsulotga nisbatan 5,8 foizni tashkil etib, ayrim xorijiy davlatlarga nisbatan 1,5-2 barobarga yuqori bo'lib

qolmoqda. O'tgan yillar mobaynida sanoat ishlab chiqarishida hamda ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarini quvvatlash uchun moliyaviy rag'batlantirish davlat siyosati vositasiga aylandi.

Soliq imtiyozlari samaradorligini monitoring va nazorat qilish bo'yicha ta'sirchan tizimni joriy etish orqali imtiyozlarning soliq to'lovchining moliyaviy faoliyatiga ta'sirini tahlil qilish hamda samarasiz va maqsadsiz berilgan soliq hamda bojxona imtiyozlarini bekor qilish bo'yicha bir qancha me'yoriy-huquqiy hujjatlар tasdiqlanishi, shu jumladan Soliq kodeksining tegishli moddalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksining 4-moddasiga muvofiq soliq imtiyozlarini bekor qilishni nazarda tutuvchi soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari rasman e'lon qilingan kundan e'tiboran kamida uch oy o'tgach amalga kiritilishi belgilangan.

**Asosiy qism.** Kodeksning 75-moddasida soliq to'lovchilarining ayrim toifalariga boshqa soliq to'lovchilarga nisbatan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarda nazarda tutilgan afzalliklar, shu jumladan soliqni to'lamaslik yoki ularni kamroq miqdorda to'lash imkoniyati soliq imtiyozlar deb e'tirof etilgan. Soliq to'lovchiga soliqlarni to'lash bo'yicha muddatni kechiktirish (bo'lib-bo'lib to'lash) imkoniyati berilishi soliq imtiyozlar hisoblanmaydi. Soliq imtiyozlar individual xususiyatga ega bo'lishi mumkin emasligi belgilangan. Ayrim soliqlar bo'yicha soliq imtiyozlar, qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i solinadigan mahsulotlar ishlab chiqarilganda va (yoki) realizatsiya qilinganda aksiz solig'i va yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqli dan tashqari, ushbu moddaning oltinchi qismi qoidalarini hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidentning qarorlari bilan faqat belgilangan soliq stavkasi ni kamaytirish, lekin ko'pi bilan 50 foizga kamaytirish tarzida va ko'pi bilan uch yil muddatga berilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan taqdim etilgan individual xarakterga ega bo'lgan imtiyozdan foydalangan korxonalar faoliyati tahlil qilindi.

Xususan xorijiy davlatlar tajribasini o'rganilganda 2020 yilda Ukraina davlatida soliq imtiyozlar yalpi ichki mahsulotga nisbatan 1,0 foizni, Janubiy Koreyada 2,7 foizni, Ispaniyada 3 foizni, Turkiyada esa ushbu ko'rsatkich 4,2 foizni tashkil etaganini ko'rshimiz mumkin.(1-jadval)

Bizning mamlakatimizda esa 2020 yilda 94 mingtaga yaqin sub'ektlar 31,1 trln.so'mlik va joriy yilning birinchi yarmida 37 mingtadan ortiq sub'yektlar 18,8 trln.so'mlik soliq imtiyozlaridan foydalangan.

Jumladan, o'tgan yilda Soliq kodeksiga asosan 73 mingdan ortiq sub'ektlar 23,0 trln.so'm, O'zbekiston Respublikasi Prezidentning Farmon va qarorlariga asosan (232 ta) 63 mingga yaqin sub'ekt

4,0 trln.so'm, Vazirlar Mahkamasining qarorlariga asosan (52 ta) 3,6 trln.so'm hajmida soliq imtiyozlaridan foydalangan.

Soliq turlari kesimida tahlil qilinganda, soliq imtiyozlarining asosiy qismi qo'shilgan qiymat solig'iga to'g'ri kelib, 2020 yilda 24,7 trln.so'mni (umumiyl imtiyoz summasining 79,3%) va 2021 yilning I yarim yilligida 15,9 trln.so'mni (84,6%) tashkil etdi.

Korxonalar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, soliq imtiyozlarining 2020 yilda 18,2 trln.so'mi (58,6%), 2021 yilning I yarim yilligida 10,9 trln.so'mi (58,5%) Yirik soliq to'lovchilarga to'g'ri kelmoqda.

Soliq turlari kesimida tahlil qilinganda, soliq imtiyozlarining asosiy qismi qo'shilgan qiymat solig'iga to'g'ri kelib, 2020 yilda 24,7 trln.so'mni (umumiyl imtiyoz summasining 79,3%) va 2021 yilning I yarim yilligida 15,9 trln.so'mni (84,6%) tashkil etdi.

Soliq turlari kesimida tahlil qilinganda, soliq imtiyozlarining asosiy qismi qo'shilgan qiymat solig'iga to'g'ri kelib, 2020 yilda 24,7 trln.so'mni (umumiyl imtiyoz summasining 79,3%) va 2021 yilning I yarim yilligida 15,9 trln.so'mni (84,6%) tashkil etdi.

Korxonalar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, soliq imtiyozlarining 2020 yilda 18,2 trln.so'mi (58,6%), 2021 yilning I yarim yilligida 10,9 trln.so'mi (58,5%) Yirik soliq to'lovchilarga to'g'ri kelmoqda.

Soliq imtiyozlar inventarizatsiya qilinganda, joriy yil yakuni bilan jami 81 ta normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan soliq imtiyozlarining amal qilish muddati tugaydi va natijada yillik hisobda o'rtacha davlat byudjetiga taxminan 1,4 trln.so'm soliq tushumlari tushishi hisob-kitob qilinmoqda.

Bundan tashqari, 2021 yilning 1 oktyabr holatiga 33 ta Vazirlar Mahkamas qarorlari, 149 ta Prezident farmoni va qarorlari bilan belgilangan, 2022-2048 yillarga mo'ljallangan soliq imtiyozlar mavjudligini ko'rshimiz mumkin.

Soliq imtiyozlar tahlil qilinganda ushbu imtiyozlardan foydalanish hamda amaliyotda qo'llashda bir qator xato va kamchiliklarni ko'rshimiz mumkin.

Tahllillarga ko'ra, 2021 yil I-yarim yilligi davomida 65 ta sub'ekt tomonidan 23 ta normativ-huquqiy hujjatlар bo'yicha 295,0 mlrd.so'm soliq imtiyozlar asossiz qo'llanilganligi holatlari kuzatildi. Misol uchun: O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2017 yil 7 noyabrdagi PF-5229-sonli Farmoniga asosan 2023 yil 1 yanvarga qadar barcha turdagil soliqlarni to'lashdan ozod qilingan bo'lsada, joriy yilda boshqa 15 ta korxona ushbu Farmonni asos qilib 2,3 mlrd.so'm miqdorida qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha imtiyozdan noto'g'ri foydalangan.

**SOLIQ IMTIYOZLARINI BUDJET DAROMADLARI VA YaIMGA NISBATAN ULUSHI TO'G'RISIDA  
MA'LUMOT**

(mlrd AQSh doll.)

№	Davlatlar	(YaIM)* hajmi		2019 yil daromadi		shundan:				2019 yilda foydalanilgan soliq imtiyozlari				
		2019 y	2020 y	summa	YaIM ulush, %	Foyda solig'i	QQS	Jis.shax. daromad solig'i	Boshqa tushum	jami	YaIM. ulush, %	shundan:		
												nol- stav.	Moliya. Xizmat.	EIZ
1	<b>O'zbekiston</b>	57,7	57,7	<b>15,7</b>	<b>27,2</b>	1,2	4,3	1,5	7,4	<b>3,4</b>	<b>5,8%</b>	0,123	0,365	0,015
	YalMga nis. ulush, %					2,0%	7,4%	2,7%	12,8%			0,2%	0,6%	0,0%
	<b>2020 yil</b>	57,7	57,7	<b>15,0</b>	<b>26,0</b>	2,8	3,9	1,5	5,7	<b>3,0</b>	<b>5,3%</b>	0,736	0,860	0,019
	YalMga %					4,9%	6,8%	2,6%	9,9%			1,3%	1,5%	0,0%
2	<b>Ispaniya</b>	1393,0	1281,0	<b>482,0</b>	<b>34,6</b>	34,2	91,6	107,0	198,6	<b>42,1</b>	<b>3,0%</b>			
	YalMga %					2,5%	6,6%	7,7%	14,3%					
3	<b>Germaniya</b>	3861,0	3806,0	<b>1498,1</b>	<b>38,8</b>	83,9	272,7	407,5	605,2	<b>34,0</b>	<b>0,9%</b>			
	YalMga, %					2,2%	7,1%	10,6%	15,7%					
4	<b>Britaniya</b>	2831,0	2708,0	<b>933,6</b>	<b>33,0</b>	74,7	197,0	254,9	332,4	<b>213,2</b>	<b>7,5%</b>			
	YalMga, %					2,6%	7,0%	9,0%	11,7%					
5	<b>Tursiya</b>	761,0	720,0	<b>175,7</b>	<b>23,1</b>	15,3	34,8	27,1	62,1	<b>31,7</b>	<b>4,2%</b>			
	YalMga %					2,0%	4,6%	3,6%	8,2%					
6	<b>Kanada</b>	1742,0	1643,0	<b>581,6</b>	<b>33,5</b>	65,7	79,1	210,5	168,7	<b>112,9</b>	<b>6,5%</b>			
	YalMga%					3,8%	4,5%	12,1%	9,7%					
7	<b>Daniya</b>	350,0	355,0	<b>162,1</b>	<b>46,3</b>	10,5	34,9	88,2	10,0	<b>7,9</b>	<b>2,3%</b>			
	YalMga %					3,0%	10,0%	25,2%	2,9%					
8	<b>Jan.Koreya</b>	1 47,0	1631,0	<b>451,3</b>	<b>27,4</b>	70,9	69,0	83,0	178,7	<b>44,0</b>	<b>2,7%</b>			
	YalMga, %					4,3%	4,2%	5,0%	10,9%					

*Manba:\**

[https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%A1%D0%BF%D0%B8%D1%81%D0%BE%D0%BA\\_%D1%81%D1%82%D1%80%D0%B0%D0%BD\\_%D0%BF%D0%BE\\_%D0%92%D0%92%D0%9F\\_\(%D0%BD%D0%BE%D0%BC%D0%B8%D0%BD%D0%BD%D0%BB\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%A1%D0%BF%D0%B8%D1%81%D0%BE%D0%BA_%D1%81%D1%82%D1%80%D0%B0%D0%BD_%D0%BF%D0%BE_%D0%92%D0%92%D0%9F_(%D0%BD%D0%BE%D0%BC%D0%B8%D0%BD%D0%BD%D0%BB))

\*\* <https://gted.net/country-profile/> маълумотлари асосида муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

Amaldagi qonunchilikka ko'ra 14 ta Vazirlar Mahkamasi qarorlari, 38 ta Prezident Farmoni va qarorlari bilan berilgan soliq imtiyozlari dolzarbligini yo'qotganligi sababli oxirgi 2 yil davomida tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan deyarli foydalanilmagan. Misol uchun: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 oktyabrdagi PQ-3344-sonli qaroriga asosan "O'zbekoziqovqatzaxira" uyushmasi tarkibiga kiramdigani tayyorlov ishlari bilan shug'ullanadigan tashkilotlarning qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish bo'yicha tovar aylanmasi yago-na soliq to'lovidan 5 yil muddatga ozod etilgan. Mazkur imtiyoz 2020 yilda umuman foydalanilmagan bo'lsa, 2021 yilning birinchi yarmida 1 ta sub'ekt tomonidan 77,4 ming so'm imtiyoz qollagan. Vaholanki, ushbu korxona "O'zbekoziqovqatzaxira" uyushmasi tarkibiga kirmaganligi aniqlandi.

Ayrim individual xususiyatdagi soliq imtiyozlari raqobat muhitini buzish bilan birga iqtisodiyot-

ning real sektorini rivojlantirishga to'siq bo'lmoqda va oxir oqibat aholining real daromadlarini oshirishga imkon bermayapti. Misol uchun: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yilning 24 yanvardagi PQ-2740-sonli qarori 8-bandiga asosan "O'zagroeksportbank" ATB va uning filiallari davlat ro'yxatiga olingen sanadan boshlab 5 yil muddatga barcha turdag'i soliqlarni to'lashdan ozod qilingan. Mazkur qarorga asosan 2021 yilda 2,4 mlrd.so'm soliq imtiyozi qollanilgan. Hozirgi kunda Respublikamizda jami 33 ta tijorat banklari mavjud bo'lib Soliq kodeksida belgilangan tartibda soliqlarni to'lab kelmoqda. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yilning 4 maydagi PQ-3694-sonli qaroriga asosan Xalq banki va Mikrokreditbankga berilgan soliq imtiyozlar 2021 yil 1 yanvardan (muddatidan oldin) bekor qilindi.

## 2-jadval

**Soliq imtiyozlarini bekor qilinishi bo'yicha umumlashtirilgan  
MA'LUMOT (mlrd.so'mda)**

Normativ huquqiy hujjat turi	Amaldagi soliq imtiyozlar (2021 yil 1 yarim yillik)			Amal qilish muddati 01.01.2022 yilda tugaydigan soliq imtiyozlar			Bekor (to'liq yoki qisman) qilinishi taklif etilayotgan soliq imtiyozlar			Byudjetga tushushi kutilayotgan summa (2022 yilda)
	NHH soni	Korxona soni	imtiyoz xajmi	NHH soni	Korxona soni	imtiyoz xajmi	NHH soni	Korxona soni	imtiyoz xajmi	
Vazirlar Mahkamasi qaror va farmoyishlari	45	489	1109	12	35	43,9	23	130	113,1	157,0
Qaror va farmoyishlari tasdiqlangan Farmonlari	215	11687	2042	61	4629	1235,4	58	1600	250,6	1486
Qonunlar	47	3 452	521	6	299	15,8	6	55	1,7	17,5
Soliq kodeksining (moddalar soni)	6	205	85	0	0	0,0	2	96	0,9	0,9
Boshqa hujjatlar (Adliya vaz., XFU)	1	33897	14772	1	131	19,5	1	2616	2125,1	2144,6
<b>J A M I</b>	<b>357</b>	<b>50 317</b>	<b>18774,7</b>	<b>82</b>	<b>5175</b>	<b>1352,7</b>	<b>90</b>	<b>4497</b>	<b>2491,4</b>	<b>3844,1</b>

*Manba:* Davlat soliq qumitasini ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rilib turibdiki, Amaldagi soliq imtiyozlar 2021 yil 1 yarim yillikda jami 357 ta normativ huquqiy hujjatlar bo'lib, 50317 ta korxonalarga 18774,7 mlrd.so'm xajmida imtiyozlar berilgan. Shundan Vazirlar Mahkamasi qaror va farmoyishlari 45 ta normativ huquqiy hujjatlar bo'lib, 489 ta korxonalarga 1109 mlrd.so'm xajmida imtiyozlar berilgan. Prezidentimiz tomonida tasdiqlangan Qaror va farmoyishlarini taxlit qilinganda 215 ta normativ huquqiy hujjatlar bo'lib, 11687 ta korxonalarga 2042 mlrd.so'm xajmida imtiyozlar berilgan. Soliq kodeksining 243-moddasi 1-qismi 11,13-bandlari 33897 ta korxonalarga 14772 mlrd.so'm xajmida imtiyozlar berilgan. Soliq imtiyozlarini bekor (to'liq yoki qisman) qilish kerak bo'lgan jami 90 ta normativ huquqiy hujjatlar bo'lib, 4497 ta korxonalarga 2491,4 mlrd.so'mni tashkil

etadi. Bu esa korxonalarga teng raqobat muhitini rivojlanishiga olib keladi.

Soliq imtiyozlarini samaradorligini monitoring va nazorat qilish bo'yicha ta'sirchan tizimni joriy etish hozirgi zamон talabi bo'lib hisoblanadi. Soliq imtiyozlar orqali soliq to'lovchining moliviyi faoliyatiga ta'sirini tahlil qilish hamda samarasiz va maqsadsiz berilgan imtiyozlarini Soliq kodeksining tegishli moddalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishni amalga oshirish samarali foydalanishni nazorat qilish kerak.

Yuqoridagilarini inobatga olgan holda, respublikamizda raqobat muhitini yanada yaxshilash hamda soliq ma'murchiligin takomillashtirish va iqtisodiyotni barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida quyidagilar taklif etiladi.

**Xulosa va takliflar.** 1. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 243-moddasi 13-bandiga asosan dori (shu jumladan, veterinariya) va tibbiyot uchun mo'ljallangan buyumlar realizatsiya qilish bo'yicha aylanma soliq solishdan ozod qilingan. Dori (veterinariya) vositalari, tibbiyot va veterinariya uchun mo'ljallangan buyumlar realizatsiyasi bo'yicha aylanmalarni qo'shilgan qiymat solig'idan imtiyozini bekor qilish.

2. O'zbekiston Respublikasida ayrim soliq imtiyozlari dolzarbligini yo'qotganligi sababli Raqobat muhitiga to'sqinlik qiluvchi individual xususiyatga ega bo'lgan va samarasiz soliq imtiyozlarini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qa-

rorlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni va qarorlarida belgilangan soliq imtiyozlarini 2022 yiling 1 yanvaridan bekor qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu esa investorlarga va tadbirkorlarga qulay shart-sharoitlar yaratish byudjetiga qo'shimcha mablag'lar tushishi ta'minlanadi hamda tadbirkorlik sub'ektlariga berilgan soliq imtiyozlarini samarali foydalanish imkoniyati yaratiladi.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni va qarorlarida belgilangan soliq imtiyozlarini "E-imtiyoz" dasturiy mahsulini yaratib, mazkur tizim orqali imtiyozni hisobini yuritish kerak.

### *Manba va adabiyotlar ro'yxati:*

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning Mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklidagi uchrashuvda so'zlagan nutqi. 2021 yil 20 avgust. – <https://president.uz/uz/lists/view/4551>
2. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi- Toshkent: G'afur G'ulom nashriyot uyi 2020.- 640 b. Tax Code of the Republic of Uzbekistan - Tashkent: Gafur Gulom Publishing House 2020.- 640 p
3. O'zbekiston Respublikasi davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari. [www.soliq.uz](http://www.soliq.uz).
4. Baladina A.S. (2011) Analiz teoretycheskix aspektov nalogovyx lgot i nalogovyx preferensiy // Vestnik Tomskogo gosudarstvennogo universiteta- №4 (16)- S. 45-60.
5. Slagoda V.G (2010) Kratkiy slovar ekonomicheskix terminov / sost. – M.: FORUM. – 128 s.
6. Tyutyuryukov N.N., Ternopolskaya G.B., Tyutyuryukov V.N. (2009) Nalogovye lgots i preferensii: sel - odna, a mehanizm - raznny // Nalogovaya politika i praktika. N 10. S. 18-23.
7. Kurbanov Z., Akramov F. (2015) –Soliq imtiyozlarining moliyaviy hisobini takomillashtirish masalalari. Biznes-ekspert ilmiy jurnalni №9
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 31 maydag'i "Imtiyozlar va preferensiyalar berish tartibini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3756-son qarori.
9. Manba:[https://gted.net/country-profile/](https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%A1%D0%BF%D0%B8%D1%81%D0%BE%D0%BA_%D1%81%D1%82%D1%80%D0%BD%D0%BD%D0%BF%D0%BE_%D0%92%D0%92%D0%9F_(%D0%BD%D0%BE%D0%BC%D0%BD%D0%8B%D0%BD%D0%BD%D0%BB) ** https://gted.net/country-profile/)

## СОЛИҚ ЮКИНИ АНИҚЛАШ МЕТОДИКАСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

**Исаев Фахриддин Икромович -**

Тошкент давлат иқтисодиёт университети ҳузуридаги  
«Ўзбекистон иқтисодиётини ривожлантиришининг  
илмий асослари ва муаммолари» илмий-тадқиқот  
маркази директор ўринбосари, PhD, доцент

**Аннотация:** Мақолада солиқ юки тушунчаси бўйича тадқиқотчиларнинг илмий изланишлари таҳлил қилинган, солиқ таҳлили асосида солиқ юкини аниқлаша бўйича тадқиқот олиб борилган. Ўзбекистон Республикасининг солиқ юки даражаси таҳлил қилиниб, солиқ юкини аниқлаша бўйича методика тақлиф қилиниб, холосалар шакллантирилган.

**Калим сўзлар:** солиқ юки, солиқ таҳлили, солиқ юки даражаси, солиқ юки кўрсаткичи.

## СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ РАСЧЕТА НАЛОГОВОЙ НАГРУЗКИ

**Исаев Фахриддин Икромович -**

Заместитель директора научно-исследовательского  
центра "Научные основы и проблемы экономического  
развития Узбекистана" при Ташкентском государственном  
экономическом университете PhD, доцент

**Аннотация:** В статье анализируются исследования исследователей по понятию налоговой нагрузки, исследование по определению налоговой нагрузки на основе налогового анализа. Проанализирован уровень налоговой нагрузки Республики Узбекистан, предложена методика определения налоговой нагрузки и сформированы выводы.

**Ключевые слова:** налоговая нагрузка, налоговый анализ, уровень налоговой нагрузки, показатель налоговой нагрузки.